

O'RTA ASRLARDA MA'NAVIY O'ZLIK VA BADIY TAFAKKUR VORISIYLI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639325>

O'roqova Oysulov Jamoliddinovna

Andijon davlat tibbiyot instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası mudiri,

falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent. O'zbekiston

ORCID - 0000-0002-1885-6910

oysulov78@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta asrlarda O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Al-Kindiy, Abu A'lo al-Maariy va "Musaffolik og'alari"ning ijtimoiy, falsafiy-estetik ta'limotlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Al-Kindiy, Abu A'lo al-Maariy, "Musaffolik og'alari", romantika, estetika, insonparvarlik, ma'naviyat, garmoniya.

Annotation: This article presents information about the social, philosophical and aesthetic teachings of the great thinkers Al-Kindi, Abu Ala al-Maari, and the "Brothers of Musaffal" who lived and worked in the Middle and Near Eastern countries in the Middle Ages.

Key words: Al-Kindi, Abu A'la al-Maari, "Masters of Musaffil", romance, aesthetics, humanitarianism, spirituality, harmony.

O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarida mifologik romantik tafakkur o'zining sinkretik tabiatidan butunlay xalos bo'la olmadi, islom dini uni o'zining murakkab tarmoqlarida tobora ko'proq chulg'ab oldi, shu sababli juda murakkab taraqqiyot yo'lini boshidan kechirdi. Mifologiya dunyoni she'riy-romantik idrok etish sifatida go'yo Sharq mutafakkirlari dunyoqarashining konstruktiv qismi va umuman estetik ongning asosi bo'lgan. Shu bois ko'plab Sharq xalqlari musiqani ilohiy ta'sir kuchiga ega hodisa sifatida tushunishadi. Ularning g'oyalariga ko'ra, musiqa butun dunyoni hamda butun ruh va tana makonini to'ldiradi va bularning bari tinimsiz musiqiy harakat hisoblanadi. Aynan mana shunda musiqaning inson ma'naviy olamini butunlay qamrab olishi va unda yaxshi fazilatlarning mutanosibligini: insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, samimiyat kabilarni tarbiyalashini ko'rish mumkin.

Uyg'unlik haqidagi ta'limot insoniyatning romantik ruhiyatiga olamni anglashning ilk aniq turlardan biri bo'lgan ratsional ilm urug'ini sochgan. Shu sababdan ham "garmoniya" va "disgarmoniya" tushunchalari muammosi nafaqat ilmiy muammo sifatida, balki badiiy-estetik masala hamda inson hayotining mazmunini anglashdan ko'zlangan maqsad bo'lib ham o'rtaga chiqadi.

Sharq mutafakkirlarining ta'limotlariga Pifagorning uyg'unlik haqidagi nazariyasi katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Al-Kindiy ilm turlarini sanash asnosida

shunday yozgan: “To‘rtinchi ilm – garmoniya haqidagi ilmdir, u sonlar ilmi, maydonlar ilmi va yulduzlar ilmidan tashkil topgan. Aslini olganda, garmoniya, ya’ni mutanosiblik, bu voqelikni “Uyg‘unlik haqida katta kitob” risolamizda aniqlaganimizdek, barcha voqea-hodisalarda, shuningdek tovushlarda, koinotning tuzilishida va inson qalbining tuzilmalarida mavjud. [1.50-b]

Al-Kindiy davrida mifologiyalashgan-romantik ong hali moddiy va ma’naviy substansiyalarga ajratilmagan edi. Sekin-asta Sharq estetikasiga nafaqat utilitar predmetlarni, balki ma’naviy faoliyat fenomenlarini ham anglashda ratsional nur o‘choqlari yog‘ila boshladi. Sharqda insonning ma’naviy hayoti bilan bog‘liq barcha narsalar axloq va din magnit maydoni tarkibiga kiritilgan. Musulmon madaniyati hukmronligi davrida haykaltaroshlik va monumental rassomchilik yoddan ko‘tarildi, musiqa esa islom riyozati taqiqlariga qaramay, rivojlanishda davom etdi. Al-Kindiyning falsafiy merosi, diniy qobiqda bo‘lishiga qaramay, Sharq mamlakatlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan: avvalo, u ajdodlarning boy merosini tanqidiy o‘zlashtirish zarurligi masalasini birinchilar qatorida ilgari surgan; ikkinchidan, o‘z tarjimalari va ilmiy ishlari bilan o‘sha davr progressiv tafakkuri rivojida tabiiy fanlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan; uchinchidan, Al-Kindiyning insonparvarlik g‘oyalari insonni ma’nan boyitishga yo‘naltirilgan edi, ya’ni u ilmiy va falsafiy bilimlarni egallashni inson qalbining ko‘rkamlashuvi sifatida baholagan; to‘rtinchidan, Al-Kindiy o‘ziga xos predmet va olamni anglashning ilmiy va badiiy turlarining o‘ziga xosligi muammosini ko‘ndalang qo‘ygan; beshinchidan, allomaning ratsionalligi Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning progressiv dunyoqarashi paydo bo‘lib, rivojlanishiga zamin yaratdi. Shuning uchun Renessans davri mashhur italian faylasufi va tarixchisi Vilyam Kordano Al-Kindiyning dunyoning mashhur 12 mutafakkiri qatoriga qo‘shgan.

Arab Sharqining taniqli mutafakkirlaridan yana biri **Abu A‘lo al-Maariy** (973–1057) bo‘lib, uning hayoti va ijodi ham aynan mana shu davrga to‘g‘ri keladi. Uning gumanistik va falsafiy g‘oyalari dunyoqarashining naqadar keng bo‘lganligini ko‘rsatadi. Al-Maariy birinchilar qatorida ijtimoiy zulm va adolatsizlikka qarshi chiqqan. Allomaning hayoti fojiali kechgan [2.67-b].

Al-Maariyning ma’ruzalari atrofdagi ijtimoiy hodisalarning sabablarini anglash ruhi bilan yo‘g‘rilgan edi. U, vatanida hukmronlik surayotgan adolatsizliklarni qalban his qilgan; boylar dunyoning barcha noz-ne‘matlaridan bahra olganlari holda, qambag‘allar “haq-huquqsiz, achchiq urning yalang‘och toshlarini g‘ajish bilan ovora...” ekanligini ta’kidlagan.[3.248-b]

Maariyning shon-shuhrati butun arab erlarida tarqaladi. U ko‘p sayohat qiladi, ilm oladi, faylasuf va olimlar bilan uchrashadi, munozaralar qiladi.

Abul al-Maariy 84 yillik umri davomida 60 ga yaqin asarlar yaratdi. Bizgacha saqlanib qolganlari: “Farishtalar haqida murojaat”, “Kechirim haqida murojaat”, “Majburiy emasning majburiyligi”, “Chaqmoqtosh uchquni” she’riy to‘plamlari va boshqalardir.

Abu A'lo al-Maariy — avvalo, faylasuf mutafakkir. Ammo, uning romantik ruhdagi va falsafiy fikrlarga yo'g'rilgan she'riy ijodi progressiv fikrlarini she'riy til orqali namoyon qilishga imkon yaratgan. She'riy ramzlar va o'ziga xos hikoyanavislik unga zolimlarga qarshi o'z fikri va kayfiyatini namoyon etishida ko'maklashardi.

Abu A'lo al-Maariyning ovozi o'rta asrlar tafakkurida haqiqat va adolatga da'vat qilardi: "Hech qachon haqiqatni pichirlab, yolg'onni hayqirib gapirmang", derdi u.

Al-Maariyning nafaqat shaxsi, balki falsafiy-she'riy ijodi ham romantik ruhiyatning namoyishi bo'ldi. U panteist, ya'ni Xudo bilan tabiatni birday narsa deb hisoblovchi faylasuf bo'lgan, ammo uning hurfikr, ilg'orligi ijodida yaqqol sezilib turgan. U falsafada ratsionalizm tarafdori bo'lgan, lekin, uning fikriga ko'ra, olamni rivojlantirish va anglash orqali haqiqat va baxtga etishish mumkin.

Yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, Al-Maariy musulmon olamida yaqqol romantik ruhiyati sezilgan ilk ijodkor bo'lgan. Uning insonlar teng huquqliligi, adolatli jamiyat barpo etish, poraxo'rlar, diniy jaholatparastlar haqidagi g'oyalari, SHarq mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri rivojida ildam qadamlar bo'lgan. U, aql-idrokka sig'indi, barcha uchun teng mehnat kerak, dedi va shularning barchasini inson baxtining asosi deb belgiladi. Inson, har qanday yovuzlik, xudbinlik, jaholat urinishlari bilan kurashda yanada go'zallashib, himmatli bo'ladi. U falsafiy tizim yaratmagan, Al-Kindiy, Al-Forobiy singari falsafa muammolari bilan shug'ullanmagan, ammo uning g'oyalari o'z davrining harakatdagi falsafasini aks ettirgan.

Maariyning falsafiy va estetik merosida gumanizm ustunlik qilgan, uning er yuzida tenglik bo'lishi va insonlar baxtli hayot kechirishi borasidagi orzulari, islom jaholatparastlarini tanqid qilishi o'rta asrlarda arab xalqlari falsafiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shgan.

Xalifa al-Mutavakkil (847–861) hukmronligi davrida Abbosiylar davlatida mo'taziliylar tarafdorlari va hurfikrlikka qarshi kurash avj oldi. Aynan mana shu reaksiya kuchlar kuchaygan X asrning ikkinchi yarmida Basra shahrida "Musaffolik og'alari" ("Ixvan as-safo") falsafiy-diniy ittifoqi vujudga keladi. Unga birlashgan insonlar falsafiy va diniy adabiyotlar mutolaasi, Sharq xalqlari ma'naviy taraqqiyoti tarixi bilan qiziqibgina qolmay, 51 ta falsafiy risola tuzdilar. Ushbu asar "Musaffolik og'alari"ning donolikni sevuvchilar, haqiqatparvarlar va keyingi avlod uchun ajoyib tuhfa bo'lgan. Ushbu asar o'sha davrning o'ziga xos qomusi bo'lgan va "Tuhfat al-ixvan as-Safa" ("Musaffolik og'alarining sovg'asi") deb atalgan.

"Musaffolik og'alarining" falsafiy qarashlari eklektik xususiyatga ega bo'lgan. Birinchidan, ularning risolalari Hindiston, Yunoniston, Eron falsafasi ta'sirida shakllangan; ikkinchidan, ta'limotida turli diniy g'oyalarning ta'siri sezilib turgan; uchinchidan, izlanishlarida paydo bo'lgan muhitning madaniy-tarixiy an'analari o'z ifodasini topgan; to'rtinchidan, ular yunon falsafasi va islom ilohiyotini eklektik tarzda birlashtirganlar.

“Musaffolik og‘alari” jamoasi axloqiy jihatdan pok va olijanob, saxovatli odamlardan iborat bo‘lib, do‘stlikni shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yganlar. Ular Abbosiylar xalifaligiga qarshi kurashda turli diniy oqimlarni birlashtirishga chaqirishgan, shu bilan birga, ularning harakat dasturi va chiqishlarida islom dini va uning voizlariga nisbatan o‘ta tanqidiy munosabat sezilib turgan: “O‘quvchilaringizga kelsak, Qur‘on, ziyoratchilar va siz eng yaxshi odamlar deb bilganlaringiz Olloh ularning ibodatlarini va shafolatlarini hisobga olishiga umid qilishadi, demak bu shariat taqiqlagan har qanday narsalardan saqlanishning tashqi qiyofasi orqali aldanishdir. Ular sizlarni tashqi itoatkorligi, sukut saqlashi, Ollohga sig‘inishi va sadoqati, o‘ziga xos kiyinishi, soch-soqolining o‘ziga xosligi bilan aldaydi. Bularning bari diniy savodsizlikdan va shariatning asl qonunlarini bilmaslikdan kelib chiqadi... Ular juda ko‘p — peshonalarida iz qolguniga qadar — sajda qiladilar, miyalari qurib, lablari yorilgunicha, tanalari ozib, oyoqlari o‘zgarib, yuzining rangi o‘chguncha eyish-ichishdan voz kechadilar. Ayni vaqtda, ularning qalblari yovuzlikka to‘la, o‘zlariga o‘xshamagan barchaga yomon nazar bilan qaraydilar”. [4.111-b]

Ularning fikriga ko‘ra, falsafa va dinni birlashtirsa bo‘ladi, ammo buning uchun falsafani aql bilan o‘rganmoq zarur, chunki u shariatni poklovchi aqlidir. Mantiq va tabiiy fanlar xususida ular Aristotelning qarashlariga moyil bo‘lganlar, emanatsiya masalalarida — yangi pifagorchilarni, antropologiya va tibbiyotda — Galenni, olam va koinot masalalarida esa yangi platonchilarni yoqlaganlar. Qadimgi yunon ta’limotlariga bunday ko‘r-ko‘rona ergashish va qadimgi falsafa bilan feodallik davri g‘oyalarini birlashtirishga intilish ularning panteistik idealizmini ta’minlagan.

“Musaffolik og‘alari”ning ta’limotlari tabiiy fanlar, din va falsafa sohalarida bilimga ega bo‘lgan odamlar uchun mo‘ljallangan. Inson o‘zini aqlli mavjudot sifatida tasdiqlar ekan, olam haqidagi bilimlarini boyitib borishi kerak. Inson farishta singari mukammal emas, ammo u hayvon singari kuchsiz ham emas: uning aqli bor, bu esa unga kichik bo‘lmagan hodisalarni anglash imkonini beradi.

Ularning faoliyatini o‘rta asrlar Sharqida jasur qadam sifatida baholash mumkin, uning ta’siri Markaziy Osiyo falsafiy va tabiiy-ilmiy tafakkuriga juda katta hissa qo‘shgan. Ulardan so‘ng Bag‘dod xalifaligida falsafiy tafakkur so‘nadi. X–XI asrlardan boshlab falsafiy va tabiiy-ilmiy tafakkur Markaziy Osiyoda qo‘nim topadi va u erda Al-Xorazmiy, Al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlarning hayoti va ijodi kechadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Избранные произведения мыслителей стран Ближнего и Среднего Востока IX–XIV вв. – М., 1961. – С.50.
2. Широян С. Великий арабский поэт и мыслитель Абу аль-Маари. – М.: Знание, 1957.
3. Из поэмы Аветика Исаакяна «Абуль Аль Маари» // Армянская поэзия в переводах В.Я.Брюсова. – Ереван, 1956. – С. 248.
4. Закуев А.К. Философия «Братьев чистоты». – Баку, 1961. – С. 111.